

**ARALASH TA'LIM (BLENDED LEARNING) TEXNALOGIYASI
ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISH.**



Olimov Anvarjon Mamirovich

Qo'qon Universiteti, Ta'lism kafedrasini o'qituvchisi.

aolimov321@gmail.com

Obidova Baxtigul Kimsanboy qizi

Qo'qon Universiteti, Boshlang'ich ta'lism

III-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Blended Learning aralash talim metodi, uslublari, aralash ta'lism orqali o'quvchilarda egallangan bilimlarining mustahkamlanishi, pedagogik qobilyat va pedagogik texnika turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek o'quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini shakllantirish omillari borasida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar; aralash ta'lism, blended learning, metod, didaktik prinsplar, tasviriy san'at, tarixiy san'at asari.

KIRISH

Blended Learning (aralash ta'lism), axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etishmoqda, xususan keyingi vaqlarda modulli ta'lism tizmida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'lismning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi.



Blended Learning aralash ta'lim haqida shunday deydi – “Ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bunday yondashuv axborotini taqdim etishda turli uslubiyatlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axbarot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o'quvchini charchatmaydi va o'qishga bo'lgan mativlarini kuchaytiradi. Asosiy masala – tanlangan uslubiyotlarning o'zaro muttanosibligini ta'minlash va kam xarajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hissoylanadi.

Blended Learning modeli o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Onlayn rejimida o'quv materiali bilan hohlagan vaqtda tanishish.
- Sinov testni topshirib bilmini mustahkamlash.
- Nazorat testini topshirish.
- O'tilgan mashg'ulotlarga mos qo'shimcha manbalar bilan tanishish.
- Audio va video yozuvlardan, animatsiya va sumuliatyaldan foydalanish.
- E-maildan foydalanish va formulada ishtirok etish.
- Ma'ruzadan tashqari o'quvchi-o'qituvchi va talabalar orasida muloqot tashkil etish.
- An'anaviy ta'lim elementlari ming yillardan beri mavjud, biroq aralash ta'lim paydo bo'lganiga hali 10 yilcha ham bo'lgani yo'q. Shu sababli bu ta'lim turlarini aralash tarzda olib borish maqsadga muvofiq.

Aralash ta'lim modeli:

- O'quv yili boshida dars jadvallari belgilanadi, fanlar bo'yicha kirish darslari o'tiladi.



- Bunda o'quvchilarga fanning tuzilishi, nazorat tizmi, adabiyot manbaalar, referatlar, nazorat ishi shaklida mashg'ulotlar bo'ladi.
- O'quv yili oxirida o'zlashtirilgan bilmlarni baholanadi.

Blended Learning fikriga ko'ra – o'quvchi yosh bo'lsa demak, uni oddiy usulda o'qitish kerak, degan fikr noto'g'ri, albatta. Avstralalyalik ish beruvchilar online va blended-learning usulida ta'lim olgan talabalarni ko'proq ishga olishar ekan.

Seminar mashg'ulotlar-ular maruzalarga qo'shib olib borilishi mumkin. Seminar mashg'ulotlari eng qiziqarli bahs munozaralarga boy mavzularni o'zlashtirishda va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llanadi.

O'qituvchi mashg'ulotni tashkil qilishda "Tarixiy tasviriy asarlar" mavzusini tanlasa, bu mavzuga doir animatsion video tayyorlab, o'quvchilarga taqdim etish orqali tashkil qiladi. Animatsion hikoyada rassom yaratgan asarlarini zamon, texnika, ish qurorollari haqida berilgan ma'lumotlarni o'quvchilar ko'rish orqali idrok etib tessavur doiralarini yanada kegaytirishga muvoffaqt bo'ladilar. Masalan Leonardo Da Vinchining "Mona Liza" asari. Videodan so'ng kichik muhokama yoki amaliy topshiriq berish mumkin, dars mavzusiga oid vizual tahlil savollarni qo'shib, "Nega bu usulda dars mashg'uloti tayyorlangan?" "Bu asar orqali siz o'zingizda qanday hissiyotni his qildingiz?"

Fanning o'quv materiallari (darslik va uslubiy qo'llanmalar) – ular ham qog'oz, ham elektron shaklda mavjud bo'ladi. Elektron shakl qog'oz shakliga qaraganda mazmuni ancha boy, qiziqarli va o'zlashtirishga qulay bo'ladi.

Dars jarayonini Paint dasturi orqali tashkillashtirish qog'ozga chizilgan tasvirdan elektron uslubda tasvirlash rasm sifatli, yorqin, tekis chiqishini ta'minlaydi. Qalam yoki flomaster yordamida, turli mo'yqalam yoki bo'yoq





yordamida chizish mumkin.Rasm chizish qanchalik zavqli bo'lmasin, xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa uni tuzatish osson kechmaydi, ko'pincha buning iloji ham bo'lmaydi.Bu borada kampyuter beqiyos imkoniyatlarga ega.Paint dasturi yordamida turli shakllar, rasmlar chizish, xar xil ranglardan foydalanish, so'zlar yozish bo'lsa ossonlik bilan xatolarni tahrir qilish mumkin.Paint dasturi orqali tashkil etilga darslar o'quvchilarni rasm chizish qobilyatini, hamda elektron kampyuter savodxonligini ham mustahkamlaydi.

Yakka tartibdagи va guruxli on-line loyihalar-bunday loyihalar internetda ishlash, turli manbaalardagi axborotlarni tahlil qilish, guruh bilan kelishib ishlash, vazifalarni bajarish bo'yicha ma'suliyat va vazifalarni birgalikda taqsimlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Virtual sinf xonasi – bunda turli internet aloqa vositalari yordamida, shuningdek o'quvchilar bevosita o'qituvchi bilan erkin muloqot qilishi mumkin.Audio va video ma'ruzalar, animatsiyalar va sumulyatsiyalar.Bu aralash ta'limni yanada oddiy, boy va qiziqarli bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar Google Arts va Culture kabi platformalardan foydalanib, Luvr yoki boshqa muzeylarda virtual sayohay qiladilar.

Sayohat davomida berilgan asarlarni topib, ularni tahlil qilishadi yoki guruhash qilishi orqali savol-javob o'tkazib muhokama qilishadi.Har-bir o'quvchi yoki guruh ko'rgan asaridan o'z tassurotlarini aytadi va o'zlari erkin holda tanlov asosida ramlar orqali tasvirlaydilar.

Blended learningdagи o'quv materiallari turlari – blended learning usulida turli texnologiyalar va vositalar axborotning o'quv materialiga kiritilishiga yordam beradi.Internet easa har bir elementning o'z o'rnida ishlatilishiga imkon beradi.O'quvchi ma'lumotni hohlasa kitobdan hohlasa






internetdan o'zi uchun qulay vaqtida, joyda o'qishi mimkin. Video maruzalar passiv, o'qish esa-faol jarayon hissoblanadi. Asosiy matnga qo'shimcha qilib turli maqolalar, hisobotlar ilova qilish mumkin. Agar mos axborotlarni topa olmasa, o'qituvchining o'zi axborotlarni web-saytiga joylab qo'yadi.

Vikepediya erkin ensiklopediya

Blended Learning



BLENDED LEARNING ARALASH TA'LIMNI AKS ETTIRUVCHI QISQA JARAYONI



Elektron ram chizish uchun mo'ljallangan planshet

Aralash ta'limdan foydalanish jarayonida o'qituvchilardan ko'plab omillarni hissobga olishni talab qiladi. Onlayn o'qitish va an'anaviy ya'ni yuzmayuz o'qitishdagi eng yaxshi xususiyatlar o'rtasidagi muvozanat Blended Learning tizimini loyihalashda etiborga olinadi. Blended Learning optimal muvozanatni topishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar quyidagilar; o'quvchilarning o'quv maqsadlari, o'qituvchining o'qitish uslubi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, baholash strategiyasini va boshqa ko'plab muammolarni aniqlaydi. O'qitishning ushbu shakliga asoslangan tadqoqotning maqsadi, aralash ta'lim kursini o'qitish va loyihalashda o'qituvchiga o'quvchilarning bilm va malaka-ko'nikmalarini mustahkamlashda katta yordam va imkoniyat beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tasviriy san'at darsida "Anor" rasmini tasvirlash mavzusi berilgan bo'lsin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga doir taqdimot tayyorlaydi. Taqdimotda anor rasmini rangi, shakli, uning chizish jarayonlarini yoritib beradi. Taqdimot orqali tashkil qilgan dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni guruhashlash orqali ham tashkillashtirishi mumkin. Ya'ni guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga anor rasmini rangli, soyali, tasvirlash vazifasi beriladi, vazifani guruhlar kanvert orqali tanlashadi. Vazifani guruh ishtirokchilari kelishgan holda bajarishadi. Taqdimot orqali tushuntirilgan dars o'quvchilar uchun qiziq va munozaralarga boy bo'ladi. Bunday dars o'quvchilar xotirasidan mustahkam joy oladi.

Test sinovi-o'qituvchi darsdan tashqari o'quvchilarning bilimini mustahkamlash orqali, tasviriy san'at dars mavzulari yuzasidan onlayn test mashg'ulotini tashkillashtirishi mumkin. Buning uchun o'quvchilar uchun tayyorlangan test savollarini slayd ko'rinishida tayyorlab, zoom platformasi orqali Brauzer (Google Chrome) saytidan www.menti.com sayt orqali tashkil etishi lozim. Bu usul yozma variantda topshirgan test sinovida ancha qulay va





samaralidir. Sababi onlayn test sinovi jarayonida o'quvchilar bilimi olgan ballari avtamatik tarzda aniqlab beradi.

Aralash ta'lim bu – onlayn ta'limning yuzma-yuz ta'lim bilan uyg'unligi, an'anaviy shakllarning elektron texnologiyalar bilan integratsiyasidir. Aralash ta'lim qisqa vaqt ichida kengroq auditoryani qamrab olishga yordam beradi. Chunki an'anaviy usullardan farqli ravishda, aralash ta'lim doim o'qituvchining auditoryada bo'lishini talab qilmaydi. Ba'zi mavzular nazariyadan ko'ra amaliy mashg'ulotlarni talab qiladi. Bunday hollarda online yoki an'anaviy ta'limdan ko'ra amaliy mashg'ulotlar maqsadga muvofiq. O'qituvchi nazariy mashg'ulotlar manbaalarini online platformaga joylab, amaliy qismini o'quvchilar mustaqil bajarishlari mumkin. O'quvchilar mustaqil ravishda bajargan topshiriqlarni, auditoryada muhokama qilish orqali fikr almashishadi.

Zamonaviy ta'lim muhitida qo'llaniladigan aralash ta'lim modelining uchta asosiy komponentlari mavjud:

- Kunduzgi ta'lim (yuzma-yuz): o'qituvchi-o'quvchining sinfdagi an'anaviy formatidir;
- Mustaqil ta'limda o'rganish; o'quvchilarining mustaqil ishlarni o'z ichiga oladi; resurs xotirasi yordamida materiallarni qidirish;
- Onlayn ta'lim o'quvchilar va o'qituvchilarining onlayn ishi, onlayn konferensyalar.

XULOSA

Maktab o'quvchilarida tasviriy san'atga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan o'quv materiallarini tanlab olishning pedagogik talablarini ishlab chiqish, qo'llanilayotgan o'quv materiallarini



amaldagi Davlat ta'lim standarti hamda Milliy o'quv dasturiga muvofiqligini kafolatlaydi. Hozirgi vaqtida juda ko'p oliygohlarda bu keng foydalanilmoqda. Shu sababli ham aralash ta'limdan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov.B “Aralash ta'lim va uning afzalliklari”.
2. Hasan R. “Maktabda tasviriy san`at metodikasi” – T “Fan” 2004-20016
3. Sunnat Arslonovich Shodiyorov (2003) “Tasviriy san`at ta'limida o'quvchilarning o'quv kompentatsiyalarini shakllantirish tizmi.”
4. Toxirova D “Ta'limda innovatsion yondashuvlar” -Toshkent 2021.